

O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi ichki audit xizmatining
2024-yil yillik faoliyati bo‘yicha
HISOBOTI

Agentlikning 2024-yil 12-avgustdagi 30-sonli buyrug‘i bilan markaziy apparat tuzilmasida ichki audit xizmati “Moliyaviy ichki audit xizmati” sifatida 1 ta shtat birligidan iborat mustaqil tarkibiy tuzilma etib tashkil etilgan. Mazkur lavozimda ishlayotgan Haydarov G‘ulomboy Tursunboevich IAMMS 0639-sonli malaka sertifikatiga ega.

Agentlik tizimida 3 (uch) ta budget va 3 (uch) ta xo‘jalik hisobidagi muassasalar mavjud.

Agentlikning ish rejasiga ko‘ra 2024-yilda 3 ta ichki audit ob‘ektida audit tadbiri o‘tkazish rejalashtirilgan, jumladan, O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparati, O‘zbekiston standartlar instituti va Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi.

O‘tgan 2024-yil davomida 2 ta (*O‘zbekiston standartlar instituti va Texnik jihatdan tartibga solish sohasida nazorat inspeksiyasi*) ob‘ektda ichki audit tadbirlari o‘tkazildi va reja 67 foizga bajarildi.

Hisobot davrida 3 ta ichki audit ob‘ektida audit tadbiri o‘tkazish rejalashtirilgan bo‘lib, agentlikda milliy malaka sertifikatiga ega bo‘lgan xodim bo‘lmaganligi, ushbu ichki audit bo‘yicha bosh mutaxassis lavozimi uzoq muddat vakansiya bo‘lib turganligi sababli O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparati ichki audit tadbiridan o‘tkazilmadi.

O‘zbekiston standartlar institutida aniqlangan holatlar bo‘yicha ichki audit tadbiri materiallari huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qilish idoralariga yuborildi.

Ichki audit xizmati bosh mutaxassisi

Haydarov G‘ulomboy Tursunboevich